TARIXIY-ETNOGRAFIK MATERIALLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ETNOPEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ne’matov Mashxurbek Inomjon o‘g‘li
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasi dotsenti v.b. Farg‘ona davlat universitetimustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0002-2827-1753

Annotatsiya
Ushbu maqolada tarixiy-etnografik materiallar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari, jarayon tuzilmasi hamda lokal-modulli texnologiyaning pedagogik imkoniyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tizimli-pedagogik model va uning tajriba-sinov natijalari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *etnopedagogik madaniyat, tarixiy-etnografik materiallar, bo‘lajak o‘qituvchi, lokal-modulli texnologiya, pedagogik model, xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar.*

KIRISH

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilayotgan hozirgi tarixiy jarayonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ustuvorlik kasb etmoqda [1]. Bu esa, tarixiy-etnografik materiallar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning metodik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish mazmuni, bosqichlari, modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni saqlash, xalq pedagogik merosini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylangan. G.N.Volkov ta’kidlaganidek, “etnopedagogika – bu xalq tarbiyaviy tajribasini, uning g‘oyalari, an'analari va vositalari tizimini o‘rganuvchi pedagogik fan”[2; 12-b]. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tarixiy-etnografik materiallar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlarini ochib berish, jarayon tuzilmasini tavsiflab, lokal-modulli texnologiyaning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etishdan iborat.

ASOSIY QISM

Etnopedagogik madaniyat tushunchasi hozirgi pedagogika fanida turlicha talqin etilmoqda. V.A.Nikolaev etnopedagogik madaniyatni “xalq pedagogikasining tarbiyaviy mohiyatini anglash hamda ushbu qadriyatlarni zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida samarali qo‘llash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan integrativ shaxsiy sifat sifatida izohlaydi”[3; 112-b]. M.G.Xaritonova esa etnopedagogik madaniyatni “o‘qituvchining ta’lim jarayonida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan tarbiyaviy

yondashuvi, dars mazmunining milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan boyitilganligi bilan tavsiflanuvchi ko‘rsatkich deb hisoblaydi”[4; 83-b].

Tadqiqotda etnopedagogik madaniyat bo‘lajak o‘qituvchining faqat bilimlar majmui sifatida emas, balki qadriyatli munosabat, kasbiy pozitsiya va refleksiv baholash qobiliyatlarini qamrab oluvchi integrativ pedagogik sifat sifatida talqin etildi. Uning ilmiy-metodik xususiyatlari xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyot, insonparvarlik pedagogikasi va milliy qadriyatlar falsafasining umuminsoniy tamoyillar bilan korrelyatsion aloqadorligi asosida aniqlashtirildi.

Etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish tuzilmasi kognitiv, tayyorlov, integrativ va yakuniy fazalar hamda ularga mos motivatsion, refleksiv, aksiologik va operatsion komponentlarning o‘zaro determinatsiyasi asosida modellashtirildi. Mazkur tuzilma etnopedagogik madaniyatni bilishdan anglashga, anglashdan qadriyatli munosabatga, qadriyatli munosabatdan amaliy pedagogik faoliyatga izchil o‘tishni ta’minlovchi natijaviy rivojlanish mantig‘ini ilmiy tushuntirish imkonini berdi.

S.G.Tishulina ta’kidlashicha, “mazkur sifat axloqiy-etnik yo‘nalganlik, madaniy identifikatsiya, o‘z-o‘zini baholash qobiliyati, etnopedagogik bilim va ko‘nikmalar, tegishli texnologiyalardan foydalanish malakasi hamda o‘quvchilarga nisbatan insonparvarlikka asoslangan ma’naviy-psixologik yondashuvni qamrab oladi”[5; 45-b].

Tadqiqot doirasida "Xalq pedagogikasi" fani mazmuni tarixiy-etnografik materiallarni tanlash, tizimlashtirish va didaktik qayta loyihalash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-qadriyatli pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Fan mavzulari etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish fazalari, ularga mos komponentlar hamda kutilgan natijalar bilan uzviy bog‘langan holda tizimlashtirildi.

Ishlab chiqilgan tizimli-pedagogik model maqsadli, metodologik, amaliy, tashkiliy-pedagogik va baholovchi-natijaviy bloklar uyg‘unligi orqali etnopedagogik madaniyatni boshqariladigan pedagogik jarayon sifatida loyihalashga xizmat qildi. Modelning asosiy xususiyati shundaki, u bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini faqat bilimlar berish orqali emas, balki qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, refleksiv tafakkurni rivojlantirish va amaliy pedagogik faoliyatga yo‘naltirish orqali rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Taklif etilgan lokal-modulli texnologiya to‘rt bosqichdan iborat: 1) bilimlarni anglash bosqichi – etnopedagogika, tarixiy-etnografik materiallar va milliy tarbiya an'analari bo‘yicha nazariy bilimlar tizimini shakllantirish; 2) mazmunni o‘zlashtirish bosqichi – tarixiy-etnografik materiallarni shaxsiy tajriba va pedagogik qarashlar bilan bog‘lab anglash; 3) qadriyatlarni integratsiyalash bosqichi – milliy qadriyatlarni kasbiy e’tiqod darajasiga ko‘tarish; 4) faoliyatda namoyon etish bosqichi – etnopedagogik bilim va qadriyatlarni real pedagogik amaliyotda qo‘llash[6; 620-b].

Har bir bosqichda muammoli bayon, storytelling, case-study, loyiha ta’limi, rolli o‘yin va mikrodarslar kabi zamonaviy pedagogik metodlardan maqsadli foydalanildi. Mazkur metodlar talabalarning bilish faolligini bosqichma-bosqich rivojlantirish, qadriyatli munosabatlarini shakllantirish hamda amaliy pedagogik ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Etnopedagogik madaniyatni baholash kognitiv-me’yoriy, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-operatsion va refleksiv-baholovchi mezonlar asosida ishlab chiqildi. Har bir mezon bo‘yicha reproduktiv (quyi), konstruktiv (o‘rta) va ijodiy-integrativ (yuqori) darajalar aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari 2023-2026 o‘quv yillarida Farg‘ona davlat universiteti, Guliston davlat pedagogika instituti va Urganch davlat pedagogika instituti bazasida jami 450 nafar pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga nisbatan amalga oshirildi. Eksperimental guruhda lokal-modulli texnologiya qo‘llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy ta’lim usullari saqlab qolindi.

Tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahlili shuni ko‘rsatdiki, uch yillik eksperiment davomida eksperimental guruhlarda umumiy samaradorlikning o‘rtacha o‘sishi nazorat guruhlariga nisbatan 13,08 foizni tashkil etdi. Statistik hisob-kitoblar natijasida nol gipoteza H_0 rad etildi va muqobil gipoteza H_1 qabul qilindi, bu esa ishlab chiqilgan metodikaning statistik jihatdan ahamiyatliligini tasdiqladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarixiy-etnografik materiallar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan lokal-modulli texnologiya samarali natija beradi. Mazkur texnologiya talabalarning etnopedagogik bilimlarini ongli ravishda o‘zlashtirishini, milliy qadriyatlarni kasbiy e’tiqod darajasiga integratsiyalashini va ularni real pedagogik faoliyatda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini egalashini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida “Xalq pedagogikasi” fani mazmunini tarixiy-etnografik materiallar asosida lokal-modulli texnologiya mantiqida qayta loyihalash; ikkinchidan, etnopedagogik madaniyatni baholashda kognitiv-me’yoriy, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-operatsion va refleksiv-baholovchi mezonlarga asoslangan diagnostik tizimni joriy etish; uchinchidan, tarixiy-etnografik materiallarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashda dars, seminar, mustaqil ta’lim va tarbiyaviy tadbirlarni yagona pedagogik mexanizmda uyg‘unlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Волков Г.Н. Этнопедагогика. – М.: Академия, 1999. – 168 б.

3. Николаев В.А. Этнопедагогическая культура учителя. – Орёл: ОГУ, 2010. – 225 б.

4. Харитонова М.Г. Формирование этнопедагогической культуры будущих учителей. – Чебоксары, 2009. – 186 б.

5. Тишулина С.Г. Формирование этнопедагогической культуры студентов в высшей школе. – Мурманск, 2006. – 160 б.

6. Ne’matov M.I. Bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasi // NamDU Ilmiy Axborotnomasi. – 2024. – 10-son. – B.619-623.

7. Ne’matov M.I. Tarixiy-etnografik materiallar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2024. – 9-son. – B.108-112.

8. Baydjanov B., Maqsudov U., Ne’matov M. va boshq. Xalq pedagogikasi: Darslik. – Farg‘ona: UZXEROX, 2025. – 360 b.